

“Maxam-Chirchiq” AJning  
2024-yil 24-iyuldagi  
378-sonli buyrug’iga  
8-ilova

**“Maxam-Chirchiq” AJ xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va  
odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari  
o‘tkazish bo‘yicha  
REGLAMENT**

**“Maxam-Chirchiq” AJ xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-ahloq qoidalarini  
buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha  
REGLAMENT**

<b>1-bob. Umumiy qoidalar</b>	<b>1-боб. Умумий қоидалар</b>
<p>1. Mazkur Reglament “Maxam-Chirchiq” AJ (keyingi o‘rinlarda – Jamiyat) xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchiligi yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki idoraviy hujjatlarini buzilishiga nisbatan xizmat tekshiruvini (keyingi o‘rinlarda – Xizmat tekshiruvi) o‘tkazishni belgilovchi ichki idoraviy hujjati hisoblanadi.</p> <p>2. Mazkur Reglament quyidagi maqsadlarda ishlab chiqilgan: Jamiyatda Xizmat tekshiruvi o‘tkazishga yagona yondashuvni belgilash; Xizmat tekshiruvini o‘tkazish jarayoni va natijalarini hujjatlashtirish talablarini belgilash; Jamiyatda qoidabuzarliklar sodir etish, unga ziyon yetkazishga olib keladigan sabab va shartlarni aniqlash va bartaraf qilish; Jamiyatda qabul qilingan ichki hujjatlar va nazorat taomillaridagi kamchiliklarni aniqlash va kelgusidagi qoidabuzarliklarga yo‘l qo‘ymaslik maqsadida ularni bartaraf qilish bo‘yicha tavsiyalarni ishlab chiqish; Jamiyat va uning xodimlarining qo‘llanilayotgan qonunchilik talablarini buzganlik uchun javobgarlikka tortilishi xavfini kamaytirish.</p> <p>3. Xizmat tekshiruvida ishtirok etayotgan Jamiyat xodimlariga ushbu Reglament bilan o‘rnatilgan talablarga rioya qilinishi uchun shaxsiy javobgarlik yuklatiladi.</p> <p>4. Jamiyatdagi Xizmat tekshiruvi quyidagi tamoyillar asosida o‘tkaziladi: qonuniylik; Jamiyat xodimlarining huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlariga rioya qilish; fuqarolar huquq va erkinliklarini ta’minlash va himoya qilish; Xizmat tekshiruvi o‘tkazishda olingan axborot va materiallarning konfidensialligi; Jamiyat xodimlari tomonidan Xizmat tekshiruvi o‘tkazishdagi shaffoflik, halollik, kollegiallik va xolislik;</p>	<p>1. Mazkur Reglament “Maxam-Chirchiq” AJ (keyingi ўринларда – Жамият) ходимлари томонидан Ўзбекистон Республикасининг коррупцияга қарши курашишга оид қонунчилиги ёки коррупцияга қарши курашишга оид ички идоравий ҳужжатларини бузилишига нисбатан хизмат текширувини (keyingi ўринларда – Хизмат текшируви) ўтказишни белгилувчи ички идоравий ҳужжати ҳисобланади.</p> <p>2. Mazkur Reglament қуйидаги мақсадларда ишлаб чиқилган: Жамиятда Хизмат текшируви ўтказишга ягона ёндашувни белгилаш; Хизмат текширувини ўтказиш жараёни ва натижаларини ҳужжатлаштириш талабларини белгилаш; Жамиятда қоидабузарликлар содир этиш, унга зиён етказишга олиб келадиган сабаб ва шартларни аниқлаш ва бартараф қилиш; Жамиятда қабул қилинган ички ҳужжатлар ва нazorat таомилларидаги камчиликларни аниқлаш ва келгусидаги қоидабузарликларга йўл қўймаслик мақсадида уларни бартараф қилиш бўйича тавсияларни ишлаб чиқиш; Жамият ва унинг ходимларининг қўлланилаётган қонунчилик талабларини бузганлик учун жавобгарликка тортилиши хавфини камайтириш.</p> <p>3. Хизмат текширувида иштирок этаётган Жамият ходимларига ушбу Регламент билан ўрнатилган талабларга rioya қилиниши учун шахсий жавобгарлик юклатилади.</p> <p>4. Жамиятдаги Хизмат текшируви қуйидаги тамойиллар асосида ўтказилади: қонунийлик; Жамият ходимларининг ҳуқуқ ва эркинликлари ҳамда қонуний манфаатларига rioya қилиш; фуқаролар ҳуқуқ ва эркинликларинини таъминлаш ва ҳимоя қилиш; Хизмат текшируви ўтказишда олинган</p>

<p>Xizmat tekshiruvi olib borilayotgan Jamiyat xodimning aybsizlik prezumpsiyasi.</p>	<p>ахборот ва материалларнинг конфиденциаллиги;  Жамият ходимлари томонидан Хизмат текшируви ўтказишдаги шаффофлик, ҳалоллик, коллегиялик ва холислик;  Хизмат текшируви олиб борилаётган Жамият ходимнинг айбсизлик презумпцияси.</p>
<p><b>2-bob. Xizmat tekshiruvni tayinlash</b></p>	<p><b>2-боб. Хизмат текширувни тайинлаш</b></p>
<p>5. Xizmat tekshiruvi Jamiyat xodimlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashishga oid qonunchiligi yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki idoraviy hujjatlarining buzilganligi to‘g‘risidagi asosli ma‘lumotlar mavjud bo‘lganda tayinlanadi.</p> <p>6. Bunday ma‘lumotlar quyidagi manbalardan kelishi mumkin:</p> <p>Jamiyat xodimlarining yozma yoki og‘zaki shakldagi bevosita rahbari yoki boshqa vakolatli shaxsga bergan ma‘lumoti;</p> <p>jismoniy va yuridik shaxslarning Jamiyatning aloqa kanallariga yuborgan xabarlari, shu jumladan, anonim xabarlar;</p> <p>jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari; ommaviy axborot vositalaridagi, shuningdek, ijtimoiy tarmoqlardagi ma‘lumotlar;</p> <p>o‘tkazilgan so‘rovnoma, shu jumladan, ijtimoiy va statistik tadqiqotlar natijalari bo‘yicha olingan ma‘lumotlar;</p> <p>ichki audit va moliyaviy nazorat bo‘linmalari, shuningdek, davlat moliyaviy nazorat organlari va O‘zbekiston Respublikasi Hisob palatasining xulosalari;</p> <p>Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi (keyingi o‘rinlarda – Ichki nazorat tuzilmasi) tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki talablar monitoringi va ularga rioya qilish ustidan nazorat natijalari;</p> <p>O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi va davlat hokimiyatining boshqa organlarining topshiriqlari;</p> <p>Boshqa kanallar orqali kelib tushgan korrupsiyaviy xarakterdagi xabarlar.</p> <p>7. Quyidagilar Xizmat tekshiruvi tashabbuskorlari bo‘la oladi:</p> <p>Jamiyat rahbari va uning o‘rinbosarlari; tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari va ularning</p>	<p>5. Хизмат текшируви Жамият ходимлари томонидан Ўзбекистон Республикасининг коррупцияга қарши курашишга оид қонунчилиги ёки коррупцияга қарши курашишга оид ички идоравий ҳужжатларининг бузилганлиги тўғрисидаги асосли маълумотлар мавжуд бўлганда тайинланади.</p> <p>6. Бундай маълумотлар қуйидаги манбалардан келиши мумкин:</p> <p>Жамият ходимларининг ёзма ёки оғзаки шаклдаги бевосита раҳбари ёки бошқа ваколатли шахсга берган маълумоти;</p> <p>жисмоний ва юридик шахсларнинг Жамиятнинг алоқа каналларига юборган хабарлари, шу жумладан, аноним хабарлар;</p> <p>жисмоний ва юридик шахсларнинг мурожаатлари;</p> <p>оммавий ахборот воситаларидаги, шунингдек, ижтимоий тармоқлардаги маълумотлар;</p> <p>ўтказилган сўровнома, шу жумладан, ижтимоий ва статистик тадқиқотлар натижалари бўйича олинган маълумотлар;</p> <p>ички аудит ва молиявий нazorat бўлинмалари, шунингдек, давлат молиявий нazorat органлари ва Ўзбекистон Республикаси Ҳисоб палатасининг хулосалари;</p> <p>Коррупцияга қарши ички нazorat тuzилмаси (кейинги ўринларда – Ички нazorat тuzилмаси) томонидан коррупцияга қарши курашиш бўйича ички талаблар мониторинги ва уларга rioya қилиш устидан нazorat натижалари;</p> <p>Ўзбекистон Республикаси Президенти, Вазирлар Маҳкамаси ва давлат хокимиятининг бошқа органларининг топшириқлари;</p> <p>Бошқа каналлар орқали келиб тушган коррупциявий характердаги хабарлар.</p>

<p>o‘rinbosarlari;          Jamiyatning Odob-ahloq komissiyasi;          Ichki nazorat tuzilmasi (korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul xodimlar);          Jamiyatning ichki audit va moliyaviy nazoratga javobgar tarkibiy bo‘linmasi rahbari;          Jamiyatning yuridik xizmati rahbari;          Jamiyatning kadrlar bilan ishlovchi bo‘linmalari rahbarlari.</p> <p>8. Korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risidagi mazkur Reglamentning 6-bandida ko‘rsatilgan manbalardan kelib tushgan har qanday ma‘lumotga nisbatan Ichki nazorat tuzilmasi Xizmat tekshiruvini o‘tkazish uchun yetarli asos va ma‘lumotlar mavjudligi, shuningdek, kelib tushgan ma‘lumotning Jamiyat xodimlariga aloqasi bor-yo‘qligini aniqlash nuqtai nazaridan dastlabki tekshiruv va tahlil qilishni amalga oshiradi.</p> <p>9. Bunda ustidan Xizmat tekshiruvini o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan yoki manfaatlar to‘qnashuvi mavjud bo‘lgan xodimlarni dastlabki tekshiruv jarayoniga jalb qilish taqiqlanadi.</p> <p>10. Dastlabki tekshiruv tegishli ma‘lumot kelib tushgan kundan boshlab 10 (o‘n) kundan ortiq bo‘lmagan muddatda o‘tkaziladi.</p> <p>11. Dastlabki tekshiruv Xizmat tekshiruvini hisoblanmaydi.</p> <p>12. Agar dastlabki tekshiruv natijalari bo‘yicha Jamiyatga aloqador bo‘lgan qoidabuzarlik sodir etilgani, sodir etilishi mumkin bo‘lgani yoki sodir etilayotganini taxmin qilishga asos borligi aniqlansa, u holda Ichki nazorat tuzilmasi rahbari Jamiyat rahbari nomiga yozma xizmat xabarini jo‘natadi.</p> <p>13. Agar Xizmat tekshiruvini Jamiyatning tarkibiy bo‘linmalari rahbari yoki uning o‘rinbosarlariga nisbatan tayinlangan bo‘lsa, xizmat xabari Jamiyat rahbarining nomiga yoziladi.</p> <p>14. Agar Xizmat tekshiruvini Jamiyat rahbari yoki uning o‘rinbosarlariga nisbatan tayinlangan bo‘lsa, (O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki hujjatlarida ko‘zda tutilgan korrupsiyaviy xatti-harakatlar, shu jumladan manfaatlar to‘qnashuvini yashirishga oid holatlarini sodir etganlikda gumon qilingan hollarda) u holda tegishli ma‘lumotlar Ichki nazorat tuzilmasi tomonidan o‘rnatilgan tartibda,</p>	<p>7. Quyidaгилар Хизмат текшируви ташаббускорлари бўла олади:          Жамият раҳбари ва унинг ўринбосарлари;          таркибий бўлинмалар раҳбарлари ва уларнинг ўринбосарлари;          Жамиятнинг Одоб-ахлоқ комиссияси;          Ички нazorat тuzилмаси (коррупцияга қарши курашишга масъул ходимлар);          Жамиятнинг ички аудит ва молиявий нazoratга жавобгар таркибий бўлинмаси раҳбари;          Жамиятнинг юридик хизмати раҳбари;          Жамиятнинг кадрлар билан ишловчи бўлинмалари раҳбарлари.</p> <p>8. Коррупциявий хатти-ҳаракатлар тўғрисидаги мазкур Регламентнинг 6-бандида кўрсатилган манбалардан келиб тушган ҳар қандай маълумотга нисбатан Ички нazorat тuzилмаси Хизмат текшируви ўтказиш учун етарли асос ва маълумотлар мавжудлиги, шунингдек, келиб тушган маълумотнинг Жамият ходимларига алоқаси бор-йўқлигини аниқлаш нуқтаи назаридан дastлабки текширув ва таҳлил қилишни амалга оширади.</p> <p>9. Бунда устидан Хизмат текшируви ўтказилиши мумкин бўлган ёки манфаатлар тўқнашуви мавжуд бўлган ходимларни дastлабки текширув жараёнига жалб қилиш тақиқланади.</p> <p>10. Дastлабки текширув тегишли маълумот келиб тушган кундан бoшлaб 10 (ўн) кундан oртиқ бўлмаган мuddатда ўтказилади.</p> <p>11. Дastлабки текширув Хизмат текшируви ҳисобланмайди.</p> <p>12. Агар дastлабки текширув натижалари бўйича Жамиятга алоқадор бўлган қoидабузарлик содир этилгани, содир этилиши мумкин бўлгани ёки содир этилаётганини тахмин қилишга асос борлиги аниқланса, у ҳолда Ички нazorat тuzилмаси раҳбари Жамият раҳбари номига ёзма хизмат хабарини жўнатади.</p> <p>13. Агар Хизмат текшируви Жамиятнинг таркибий бўлинмалари раҳбари ёки унинг ўринбосарларига нисбатан тайинланган бўлса, хизмат хабари Жамият раҳбарининг номига ёзилади.</p>
--	--

Ko'zaturv kengashiga yoki O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlariga yuboriladi.

15. Jamiyat rahbari xizmat xabari olingan kundan boshlab 3 (uch) ish kunida Xizmat tekshiruvi o'tkazish yoki o'tkazmaslik to'g'risida qaror (buyruq) qabul qiladi.

16. Jamiyat rahbari xizmat xabariga asosan tegishli materiallarni O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qilish organlariga Xizmat tekshiruvi o'tkazmasdan taqdim etish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

17. Xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risida qaror qabul qilish bilan bir vaqtda Jamiyat rahbari Xizmat tekshiruvi o'tkazish bo'yicha ishchi guruh rahbarini tayinlaydi va unga ishchi guruh tarkibini shakllantirishni va xizmat tekshiruvni o'tkazish to'g'risida buyruq tayyorlash vazifasini topshiradi.

18. Xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi buyruqda quyidagilar ko'rsatiladi:

Xizmat tekshiruvi predmeti (mavzusi);

Xizmat tekshiruvi o'tkazilishiga asos bo'lgan sabab yoki vaziyat;

Xizmat tekshiruvi o'tkazishga sabab bo'lgan qoidabuzarlikni sodir etishda gumonlanayotgan xodim (lar), u (lar)ning F.I.Sh. va lavozimi (boshqarma, bo'lim, bo'linma nomi) ma'lum bo'lsa;

Xizmat tekshiruvini o'tkazish uchun ma'sul bo'lgan ishchi guruh tarkibi;

Ishchi guruh a'zolari va rahbarining huquq va majburiyatlari;

Xizmat tekshiruvini o'tkazish va natijalarni taqdim etish muddati.

19. Xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi buyruq loyihasi Jamiyat rahbariga imzolash uchun Xizmat tekshiruvi o'tkazish to'g'risidagi qaror qabul qilingan sanadan boshlab 3 kun ichida taqdim etilishi kerak.

14. Agar Xizmat tekshiruvi Jamiyat rahbari ёки унинг ўринбосарларига нисбатан тайинланган бўлса, (Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги ва Жамиятнинг ички ҳужжатларида кўзда тутилган коррупциявий хатти-ҳаракатлар, шу жумладан манфаатлар тўқнашувини яширишга оид ҳолатларини содир этганликда гумон қилинган ҳолларда) у ҳолда тегишли маълумотлар Ички назорат тузилмаси томонидан ўрнатилган тартибда, Кўзатурв кенгашига ёки Ўзбекистон Республикаси ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларига юборилади.

15. Жамият раҳбари хизмат хабари олинган кундан бoшлaб 3 (уч) иш кунидa Хизмат текшируви ўтказиш ёки ўтказмаслик тўғрисида қарор (буйруқ) қабул қилади.

16. Жамият раҳбари хизмат хабарига асосан тегишли материалларни Ўзбекистон Республикаси ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларига Хизмат текшируви ўтказмасдан тақдим этиш тўғрисида қарор қабул қилиши мумкин.

17. Хизмат текшируви ўтказиш тўғрисида қарор қабул қилиш билан бир вақтда Жамият раҳбари Хизмат текшируви ўтказиш бўйича ишчи гуруҳ раҳбарини тайинлайди ва унга ишчи гуруҳ таркибини шакллантиришни ва хизмат текширувни ўтказиш тўғрисида буйруқ тайёрлаш вазифасини топширади.

18. Хизмат текшируви ўтказиш тўғрисидаги буйруқда қуйидагилар кўрсатилади:

Хизмат текшируви предмети (мавзуси);

Хизмат текшируви ўтказилишига асос бўлган сабаб ёки вазият;

Хизмат текшируви ўтказишга сабаб бўлган қоидабузарликни содир этишда гумонланаётган ходим (лар), у (лар)нинг Ф.И.Ш. ва лавозими (бошқарма, бўлим, бўлинма номи) маълум бўлса;

Хизмат текширувини ўтказиш учун маъсул бўлган ишчи гуруҳ таркиби;

Ишчи гуруҳ аъзолари ва раҳбарининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари;

Хизмат текширувини ўтказиш ва натижаларни тақдим этиш мuddати.

19. Хизмат текшируви ўтказиш тўғрисидаги

	буйруқ лойиҳаси Жамият раҳбарига имзолаш учун Хизмат текшируви ўтказиш тўғрисидаги қарор қабул қилинган санадан бошлаб 3 кун ичида тақдим этилиши керак.
<b>3-bob. Xizmat tekshiruvini o'tkazish bo'yicha ishchi guruh tuzish</b>	<b>3-боб. Хизмат текшируви ўтказиш бўйича ишчи гуруҳ тузиш</b>
<p>20. Xizmat tekshiruvini o'tkazish bo'yicha ishchi guruh tarkibi, Ishchi guruh rahbari taklifiga asosan tuziladi, qoida tariqasida unga ichki nazorat tuzilmalari, kadrlar bilan ishlovchi bo'linmalar, yuridik xizmat, ichki audit va moliyaviy nazorat bo'linmalari hamda lavozim majburiyati Xizmat tekshiruvini predmeti bo'lgan yoki shunga yaqin bo'lgan boshqa bo'linmalar xodimlari kiritilishi mumkin.</p> <p>21. Tarkibiy bo'linmalar tomonidan tashkil etilgan ishchi guruh tarkibiga Jamiyat boshqaruv apparati xodimlari kiritilishi mumkin.</p> <p>22. Quyidagi xodimlar ishchi guruh tarkibiga kiritilmaydi:  Xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan xodimning yaqin qarindoshlari;  Xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan xodimning bevosita bo'ysinuvidagi xodim;  Xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan xodimning bevosita rahbari (Jamiyat va tarkibiy bo'linma rahbari bundan mustasno);  Xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan yo'nalishni boshqarayotgan Jamiyat va tarkibiy bo'linma rahbarining o'rinbosarlari;  tekshiruv yakunidan bevosita yoki bilvosita manfaatdor ekanligi haqida gumon (masalan birga ta'lim olgan, bir hududdan bo'lgan, ishqiy munosabatlarda, xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan xodim bilan oshkora ziddiyatga ega va h.k.) bo'lgan boshqa xodimlar.</p> <p>23. Ishchi guruhni shakllantirish uchun ma'suliyat ishchi guruh rahbari zimmasida bo'ladi. U mazkur Reglamentning 22-bandida ko'rsatilgan potensial manfaatlar to'qnashuvi holati mavjudligi bo'yicha guruh a'zolarini tekshirishi shart.</p>	<p>20. Хизмат текширувини ўтказиш бўйича ишчи гуруҳ таркиби, Ишчи гуруҳ раҳбари таклифига асосан тузилади, қоида тариқасида унга ички назорат тузилмалари, кадрлар билан ишловчи бўлинмалар, юридик хизмат, ички аудит ва молиявий назорат бўлинмалари ҳамда лавозим мажбурияти Хизмат текшируви предмети бўлган ёки шунга яқин бўлган бошқа бўлинмалар ходимлари киритилиши мумкин.</p> <p>21. Таркибий бўлинмалар томонидан ташкил этилган ишчи гуруҳ таркибига Жамият бошқарув аппарати ходимлари киритилиши мумкин.</p> <p>22. Қуйидаги ходимлар ишчи гуруҳ таркибига киритилмайди:  Хизмат текшируви ўтказилаётган ходимнинг яқин қариндошлари;  Хизмат текшируви ўтказилаётган ходимнинг бевосита бўйсинувидаги ходим;  Хизмат текшируви ўтказилаётган ходимнинг бевосита раҳбари (Жамият ва таркибий бўлинма раҳбари бундан мустасно);  Хизмат текшируви ўтказилаётган йўналишни бошқараётган Жамият ва таркибий бўлинма раҳбарининг ўринбосарлари;  текширув якунидан бевосита ёки билвосита манфаатдор эканлиги ҳақида гумон (масалан бирга таълим олган, бир ҳудуддан бўлган, ишқий муносабатларда, хизмат текшируви ўтказилаётган ходим билан ошкора зиддиятга эга ва ҳ.к.) бўлган бошқа ходимлар.</p> <p>23. Ишчи гуруҳни шакллантириш учун маъсулият ишчи гуруҳ раҳбари зиммасида бўлади. У мазкур Регламентнинг 22-бандида кўрсатилган потенциал манфаатлар тўқнашуви ҳолати мавжудлиги бўйича гуруҳ аъзоларини текшириши шарт.</p>
<b>4-bob. Xizmat tekshiruvini o'tkazish</b>	<b>4-боб. Хизмат текширувини ўтказиш</b>
24. Xizmat tekshiruvini tegishli buyruq imzolagan	24. Хизмат текшируви тегишли буйруқ

sanadan boshlab 30 (o'ttiz) kundan ortiq bo'lmagan muddatda o'tkazilishi kerak.

25. Agar Xizmat tekshiruvini jarayonida 24-bandda ko'rsatilgan muddatlarning uzayishiga olib keladigan qo'shimcha tartib-taomillar (shu jumladan, xodimlar va boshqa shaxslar orasida qo'shimcha so'rovnomani o'tkazish) o'tkazilishi, qo'shimcha hujjatlarni so'rab olish talab etilsa, u holda ishchi guruh rahbari bu haqda ma'lum bo'lishi bilan majburiy tartibda, Xizmat tekshiruvini to'g'risidagi buyruqni imzolagan rahbarni xabardor qiladi. Bunday holatlarda, Xizmat tekshiruvini o'tkazish muddatlari 30 (o'ttiz) kalendar kunidan ortiq bo'lmagan muddatga uzaytirilishi mumkin.

26. Ustidan Xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan xodim yo'q bo'lgan holda (ta'til, kasallik, xizmat safari va boshqalar), u vaqtincha to'xtatiladi, uning muddati esa avtomatik tarzda ushbu xodim yo'q bo'lgan davrga uzaytiriladi.

Agar xodim 30 (o'ttiz) kalendar kunidan ortiq muddatga yo'q bo'lgan yoki Xizmat tekshiruvida ishtirok etishdan boshqa usul bilan bosh tortgan holda, Xizmat tekshiruvini Jamiyat va tarkibiy bo'linma rahbari bilan kelishgan holda xodimning ishtirokisiz o'tkazilishi mumkin va ushbu holat Xizmat tekshiruvini natijalarida qayd etiladi.

27. Ustidan Xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan xodimga, ishchi guruh rahbarining tavsiyasiga asosan Jamiyat va tarkibiy bo'linma rahbari buyrug'i bilan ma'lum bir axborot tizimlari, muayyan hujjatlardan foydalanishga cheklov qo'yilishi mumkin. Ushbu holatda qabul qilingan buyruq haqida, ustidan xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan xodim, o'sha kuniyoq buyruqqa imzo chektirilgan holda tanishtiriladi. Buyruq bilan tanishish rad etilgan holda bu haqida ishchi guruh rahbari tomonidan dalolatnoma tuziladi.

28. Xodimga nisbatan ma'lum bir axborot tizimlari, muayyan hujjatlardan foydalanishga cheklov qo'yishga oid buyruq Xizmat tekshiruvini o'tkazishning muddatidan ortiq bo'lmasligi kerak.

имзолаган санадан бошлаб 30 (ўттиз) кундан ортик бўлмаган мuddатда ўтказилиши керак.

25. Агар Хизмат текширувини жараёнида 24-бандда кўрсатилган мuddатларнинг узайишига олиб келадиган кўшимча тартиб-таомиллар (шу жумладан, ходимлар ва бошқа шахслар орасида кўшимча сўровнома ўтказиш) ўтказилиши, кўшимча хужжатларни сўраб олиш талаб этилса, у ҳолда ишчи гуруҳ раҳбари бу ҳақда маълум бўлиши билан мажбурий тартибда, Хизмат текширувини тўғрисидаги буйруқни имзолаган раҳбарни хабардор қилади. Бундай ҳолатларда, Хизмат текширувини ўтказиш мuddатлари 30 (ўттиз) календарь кунидан ортик бўлмаган мuddатга узайтирилиши мумкин.

26. Устидан Хизмат текширувини ўтказилаётган ходим йўқ бўлган ҳолда (таътил, касаллик, хизмат сафари ва бошқалар), у вақтинча тўхтатилади, унинг мuddати эса авtomatik тарзда ушбу ходим йўқ бўлган даврга узайтирилади.

Агар ходим 30 (ўттиз) календарь кунидан ортик мuddатга йўқ бўлган ёки Хизмат текширувида иштирок этишдан бошқа усул билан бош tortган ҳолда, Хизмат текширувини Жамият ва таркибий бўлинма раҳбари билан келишган ҳолда ходимнинг иштирокисиз ўтказилиши мумкин ва ушбу ҳолат Хизмат текширувини натижаларида қайд этилади.

27. Устидан Хизмат текширувини ўтказилаётган ходимга, ишчи гуруҳ раҳбарининг тавсиясига асосан Жамият ва таркибий бўлинма раҳбари буйруғи билан маълум бир ахборот тизимлари, муайян хужжатлардан фойдаланишга чеклов қўйилиши мумкин. Ушбу ҳолатда қабул қилинган буйруқ ҳақида, устидан хизмат текширувини ўтказилаётган ходим, ўша кунийоқ буйруққа имзо чектирилган ҳолда таништирилади. Буйруқ билан танишиш рад этилган ҳолда бу ҳақида ишчи гуруҳ раҳбари томонидан далолатнома тuzилади.

28. Ходимга нисбатан маълум бир ахборот тизимлари, муайян хужжатлардан фойдаланишга чеклов қўйишга oid буйруқ Хизмат текширувини ўтказишнинг мuddатидан ортик бўлмаслиги керак.

<b>5-bob. Xizmat tekshiruvini o‘tkazish davomida o‘rganiladigan ma’lumotlar</b>	<b>5-боб. Хизмат текширувини ўтказиш давомида ўрганиладиган маълумотлар</b>
<p>29. Xizmat tekshiruvini o‘tkazish davomida ishchi guruh qoidabuzarlikka aloqador bo‘lgan ma’lumotlarni to‘plash, tahlil qilish va hujjatlashtirish ishlarini amalga oshiradi, shu jumladan:</p> <p>qoidabuzarlik, uni sodir etish sabablari nimada aks etadi;</p> <p>Qoidalari buzilgan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va Jamiyatning ichki idoraviy hujjatlari talablari;</p> <p>Qoidabuzarlikni sodir bo‘lgan vaqti, joyi, usuli;</p> <p>Qoidabuzarlikni sodir etishga jalb qilingan shaxslar doirasi (Jamiyat xodimlari bilan bir qatorda uchinchi shaxslar ham);</p> <p>qoidabuzarlikning og‘irlik darajasi;</p> <p>Jamiyatga etkazilgan moddiy va nomoddiy, obro‘-e‘tibor xarakteridagi zararining ko‘rinishi va ko‘lami;</p> <p>Qoidabuzarlikni sodir etishga aloqador bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa ma’lumotlar.</p> <p>30. Xizmat tekshiruvini o‘tkazish davomida olinadigan ma’lumotlar manbasi quyidagilar bo‘lishi mumkin:</p> <p>ustidan Xizmat tekshiruvini o‘tkazilayotgan xodim, Jamiyatning boshqa xodimlari, uchinchi shaxslarning yozma yoki og‘zaki tushuntirishlari;</p> <p>tasdiqlovchi hujjatlar (yozma va elektron shaklda);</p> <p>internet tarmog‘ining ommaviy tizimida joylangan axborot manbalarining ma’lumotlari;</p> <p>audioyozuvlar, foto- va videos‘yomkalar;</p> <p>qoidabuzarlikka aloqador bo‘lgan boshqa materiallar.</p> <p>31. Yuqorida sanab o‘tilgan barcha, shu jumladan konfidensial ma’lumotlar ishchi guruh tomonidan Jamiyatda qabul qilingan barcha tartib-taomillarni qo‘llagan holda, shuningdek, Jamiyatning ichki hujjatlari va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq olinishi va foydalanilishi kerak.</p> <p>32. Jamiyat xodimlari yoki jalb etilgan boshqa shaxslar bilan o‘tkazilgan suhbat jarayoni audio yoki video qayd qilinishi, suhbat to‘g‘risida bayonnoma tuzilishi kerak (qayd qilingan audio</p>	<p>29. Хизмат текширувини ўтказиш давомида ишчи гуруҳ қоидабузарликка алоқадор бўлган маълумотларни тўплаш, таҳлил қилиш ва ҳужжатлаштириш ишларини амалга оширади, шу жумладан:</p> <p>қоидабузарлик, уни содир этиш сабаблари нимада акс этади;</p> <p>Қоидалари бузилган Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги ва Жамиятнинг ички идоравий ҳужжатлари талаблари;</p> <p>Қоидабузарликни содир бўлган вақти, жойи, усули;</p> <p>Қоидабузарликни содир этишга жалб қилинган шахслар доираси (Жамият ходимлари билан бир қаторда учинчи шахслар ҳам);</p> <p>қоидабузарликнинг оғирлик даражаси;</p> <p>Жамиятга етказилган моддий ва номоддий, обрў-эътибор характеридаги зарарнинг кўриниши ва кўлами;</p> <p>Қоидабузарликни содир этишга алоқадор бўлиши мумкин бўлган бошқа маълумотлар.</p> <p>30. Хизмат текширувини ўтказиш давомида олинadиган маълумотлар манбаси қуйидагилар бўлиши мумкин:</p> <p>устидан Хизмат текширувини ўтказилаётган ходим, Жамиятнинг бошқа ходимлари, учинчи шахсларнинг ёзма ёки оғзаки тушунтиришлари;</p> <p>тасдиқловчи ҳужжатлар (ёзма ва электрон шаклда);</p> <p>интернет тармоғининг оммавий тизимида жойланган ахборот манбаларининг маълумотлари;</p> <p>аудиоёзувлар, фото- ва видеосъёмкалар;</p> <p>қоидабузарликка алоқадор бўлган бошқа материаллар.</p> <p>31. Юқорида санаб ўтилган барча, шу жумладан конфиденциал маълумотлар ишчи гуруҳ томонидан Жамиятда қабул қилинган барча тартиб-таомилларни қўллаган ҳолда, шунингдек, Жамиятнинг ички ҳужжатлари ва Ўзбекистон Республикаси қонунчилигига мувофиқ олинishi ва фойдаланилиши керак.</p> <p>32. Жамият ходимлари ёки жалб этилган бошқа шахслар билан ўтказилган суҳбат</p>



<p>yoki video Xizmat tekshiruvi materiallariga qo'shib qo'yiladi).</p> <p>Audio va video qaydni amalga oshirishdan oldin suhbat o'tkazilayotgan shaxsning roziligi olinadi. Rozilik berilmasa audio va video qaydni amalga oshiruvchi uskunalardan foydalanishga yo'l qo'yilmaydi.</p> <p>33. Ustidan xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan yoki boshqa xodimning suhbat yoki tushuntirish berishdan bosh tortilgan hollarda ushbu Reglamentning 1-ilovasiga mos shaklda dalolatnoma rasmiylashtiriladi.</p> <p>34. Ishchi guruh rahbari mazkur xodimni dalolatnoma bilan tanishganligini tasdiqlash uchun unga imzo qo'yishi zarurligi to'g'risida xabardor qiladi. Agar xodim hujjatga imzo qo'yishdan bosh tortsa, u holda ishchi guruh rahbari hujjatga tegishli belgi qo'yadi.</p> <p>35. Ustidan tekshiruv o'tkazilayotgan xodim tomonidan dalolotnomaga (yoki boshqa hujjatlarga) imzo qo'ymaslik unga nisbatan tegishli javobgarlik chorasini qo'llashdan ozod qilmaydi.</p>	<p>жараёни аудио ёки видео қайд қилиниши, суҳбат тўғрисида баённома тузилиши керак (қайд қилинган аудио ёки видео Хизмат текшируви материалларига қўшиб қўйилади).</p> <p>Аудио ва видео қайдни амалга оширишдан олдин суҳбат ўтказилаётган шахснинг розилиги олинади. Розилик берилмаса аудио ва видео қайдни амалга оширувчи ускуналардан фойдланишга йўл қўйилмайди.</p> <p>33. Устидан хизмат текшируви ўтказилаётган ёки бошқа ходимнинг суҳбат ёки тушунтириш беришдан бош тортилган ҳолларда ушбу Регламентнинг 1-иловасига мос шаклда далолатнома расмийлаштирилади.</p> <p>34. Ишчи гуруҳ раҳбари мазкур ходимни далолатнома билан танишганлигини тасдиқлаш учун унга имзо қўйиши зарурлиги тўғрисида хабардор қилади. Агар ходим ҳужжатга имзо қўйишдан бош тортса, у ҳолда ишчи гуруҳ раҳбари ҳужжатга тегишли белги қўяди.</p> <p>35. Устидан текширув ўтказилаётган ходим томонидан далолотномага (ёки бошқа ҳужжатларга) имзо қўймаслик унга нисбатан тегишли жавобгарлик чорасини қўллашдан озод қилмайди.</p>
<p><b>6-боб. Ишчи гуруҳ раҳбари ва а'зolarining ҳуқуқ ва мажбуриятлари</b></p>	<p><b>6-боб. Ишчи гуруҳ раҳбари ва аъзоларининг ҳуқуқ ва мажбуриятлари</b></p>
<p>36. Ишчи гуруҳ раҳбари Хизмат текширувнинг самарadorлиги ва натижаси, шунингдек, ишчи гуруҳ а'zolarining мазкур Регламент билан белгиланган талабларга амал қилишлари учун ма'sул бо'ladi.</p> <p>37. Хизмат текшируви o'tkazish davomida ишчи гуруҳ раҳбари quyidagi vazifalarni амалга oshiradi:</p> <p>Хизмат текшируви o'tkazishning yo'nalishlari, амалга oshiriladigan tadbirlarni белгилaydi, ишчи гуруҳ а'zolari oldiga vazifalar qo'yadi;</p> <p>Ишчи гуруҳ томонидан Хизмат текшируви o'tkazilishini tashkillashtiradi va muvofiqlashtiradi;</p> <p>Ишчи гуруҳ томонидан Хизмат текширувнинг ushbu Reglamentga muvofiq ravishda o'tkazilishini nazorat qiladi;</p> <p>suhbat o'tkazish, tushuntirish talab qilib olish zarur bo'lgan xodimlar ro'yxatini tuzadi;</p> <p>Xizmat tekshiruvini xolis va samarali o'tkazish uchun zarur bo'lgan choralar ko'rilishini</p>	<p>36. Ишчи гуруҳ раҳбари Хизмат текширувининг самарadorлиги ва натижаси, шунингдек, ишчи гуруҳ аъзоларининг мазкур Регламент билан белгиланган талабларга амал қилишлари учун маъсул бўлади.</p> <p>37. Хизмат текшируви ўтказиш давомида ишчи гуруҳ раҳбари қуйидаги вазифаларни амалга оширади:</p> <p>Хизмат текшируви ўтказишнинг йўналишлари, амалга ошириладиган тadbirlarni белгилайди, ишчи гуруҳ аъзолари олдига вазифалар қўяди;</p> <p>Ишчи гуруҳ томонидан Хизмат текшируви ўтказилишини ташкиллаштиради ва мувофиқлаштиради;</p> <p>Ишчи гуруҳ томонидан Хизмат текширувининг ушбу Регламентга мувофиқ равишда ўтказилишини назорат қилади;</p> <p>суҳбат ўтказиш, тушунтириш талаб қилиб</p>

ta'minlaydi (masalan, Jamiyatdagi ma'lumotlarni yo'q qilish jarayonlarini to'xtatib turishni talab qiladi, tegishli xodimlarga nisbatan tekshiruv o'tkazilayotgan davrda ma'lum bir axborot tizimlari, muayyan hujjatlardan foydalanishga cheklov qo'yishni tavsiya qiladi, zaruriyat tug'ilganda tekshiruvni o'tkazishning maksimal muddatlarini uzaytirish bo'yicha taklif tayyorlaydi va boshqalar.);

Jamiyat rahbariga Xizmat tekshiruv natijalarining taqdim etilishini ta'minlaydi.

38. Xizmat tekshiruvini o'tkazishda ishchi guruh rahbari va a'zolari quyidagi huquqlarga ega:

Jamiyat xodimlari bilan suhbat o'tkazish, tushuntirish xati olish, tekshiruv mohiyati to'g'risida ma'lumotga ega bo'lishi mumkin bo'lgan uchinchi shaxslar, shuningdek, tashqi ekspertlarni ularning roziligi bilan Xizmat tekshiruv jarayoniga taklif qilish. Uchinchi shaxslar va tashqi ekspertlarni jalb qilish masalasi Jamiyat rahbari bilan kelishilishi shart;

suhbatni yozma shaklda yoki zaruriyat tug'ilganda tushuntirish berayotgan shaxsning roziligi bilan audio- va videoqayd etuvchi uskunalar qo'llash bilan qayd etishni amalga oshirish;

Jamiyat xodimlaridan Xizmat tekshiruviga aloqador bo'lishi mumkin bo'lgan materiallarni olish;

Jamiyatning mulkining bus-butunligini xatlov va taftishdan o'tkazish;

O'tkazilayotgan Xizmat tekshiruv doirasida o'z lavozim majburiyatlarini bajarish uchun foto- va videoqaydlarni amalga oshirish.

39. Ishchi guruh rahbari va a'zolari majburiyatlari:

Xizmat tekshiruvini o'tkazishda ushbu Reglament, Jamiyatning boshqa ichki hujjatlari va O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga amal qilish;

Xizmat tekshiruv mohiyati bo'yicha mavjud barcha materiallarni to'plash;

Xizmat tekshiruv maqsadlari uchun ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlarning (hujjatlar, elektron ma'lumotlar va b.) butligini saqlash bo'yicha choralar ko'rish;

mazkur Reglament, Jamiyatning boshqa ichki

олиш зарур бўлган ходимлар рўйхатини тузади;

Хизмат текширувини холис ва самарали ўтказиш учун зарур бўлган чоралар кўрилишини таъминлайди (масалан, Жамиятдаги маълумотларни йўқ қилиш жараёнларини тўхтатиб туришни талаб қилади, тегишли ходимларга нисбатан текширув ўтказилаётган даврда маълум бир ахборот тизимлари, муайян ҳужжатлардан фойдаланишга чеклов қўйишни тавсия қилади, зарурият туғилганда текширувни ўтказишнинг максимал муддатларини узайтириш бўйича таклиф тайёрлайди ва бошқалар.);

Жамият раҳбарига Хизмат текшируви натижаларининг тақдим этилишини таъминлайди.

38. Хизмат текширувини ўтказишда ишчи гуруҳ раҳбари ва аъзолари қуйидаги ҳуқуқларга эга:

Жамият ходимлари билан суҳбат ўтказиш, тушунтириш хати олиш, текширув моҳияти тўғрисида маълумотга эга бўлиши мумкин бўлган учинчи шахслар, шунингдек, ташқи экспертларни уларнинг розилиги билан Хизмат текшируви жараёнига таклиф қилиш. Учинчи шахслар ва ташқи экспертларни жалб қилиш масаласи Жамият раҳбари билан келишилиши шарт;

суҳбатни ёзма шаклда ёки зарурият туғилганда тушунтириш бераётган шахснинг розилиги билан аудио- ва видеоқайд этувчи ускуналар қўллаш билан қайд этишни амалга ошириш;

Жамият ходимларидан Хизмат текширувга алоқадор бўлиши мумкин бўлган материалларни олиш;

Жамиятнинг мулкнинг бус-бутунлигини хатлов ва тафтишдан ўтказиш;

Ўтказилаётган Хизмат текшируви доирасида ўз лавозим мажбуриятларини бажариш учун фото- ва видеоқайдларни амалга ошириш.

39. Ишчи гуруҳ раҳбари ва аъзолари мажбуриятлари:

Хизмат текширувини ўтказишда ушбу Регламент, Жамиятнинг бошқа ички ҳужжатлари ва Ўзбекистон Республикаси қонунчилиги талабларига амал қилиш;

<p>hujjalari va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko‘zda tutilgan holatlardan tashqari Xizmat tekshiruvi o‘tkazish doirasida olingan ma‘lumotlarning mutlaqo konfidensialligini saqlash va oshkor qilmaslik;</p> <p>mazkur Reglament talablariga muvofiq ravishda tekshiruv natijalarini rasmiylashtirish, shu jumladan, javobgarlik choralari, shuningdek, qoidabuzarlik sabablari va qoidabuzarlikni sodir etishga turtki bo‘lgan shart-sharoitlarni bartaraf qilish imkonini beradigan choralarni qo‘llash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.</p>	<p>Xizmat tekshiruvi mo‘xijati b‘yicha mavjud barча материалларни t‘pлаш;</p> <p>Xizmat tekshiruvi maқсадлари учун аҳамиятга эга б‘улган маълумотларнинг (хужжатлар, электрон маълумотлар ва б.) бутлигини сақлаш б‘yича чоралар к‘риш;</p> <p>мазкур Регламент, Жамиятнинг бошқа ички хужжатлари ва Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида кўзда тutilган ҳолатлардан ташқари Хизмат текшируви ўтказиш доирасида олинган маълумотларнинг мутлақо конфиденциаллигини сақлаш ва ошкор қилмаслик;</p> <p>мазкур Регламент талабларига мувофиқ равишда текширув натижаларини расмийлаштириш, шу жумладан, жавобгарлик чоралари, шунингдек, қоидабузарлик сабаблари ва қоидабузарликни содир этишга тurtки б‘улган шарт-шароитларни бартараф қилиш имконини берадиган чораларни қўллаш б‘yича таклифлар ишлаб чиқиш.</p>
<p align="center"><b>7-bob. Ustidan Xizmat tekshiruvi o‘tkazilayotgan xodimlarning huquqlari</b></p>	<p align="center"><b>7-боб. Устидан Хизмат текшируви ўтказилаётган ходимларнинг ҳуқуқлари</b></p>
<p>40. Ustidan Xizmat tekshiruvi o‘tkazilayotgan xodim quyidagi huquqlarga ega:</p> <p>Xizmat tekshiruvi o‘tkazish fakti to‘g‘risida xabardor bo‘lish;</p> <p>qoidabuzarlikning sodir etilishi sabablari va sharoitlari, Xizmat tekshiruvining borishi haqida o‘z fikr-mulohazalarini ifodalash huquqi bilan yozma va og‘zaki tushuntirishlar berish, shuningdek, uning tushuntirishlarini tasdiqlashi mumkin bo‘lgan isbot-dalillarni taqdim etish;</p> <p>Tushuntirishlar taqdim etishdan bosh tortish – bu holda ushbu Reglamentning 33-bandida ko‘zda tutilgan dalolatnoma tuziladi;</p> <p>o‘zi tomonidan taqdim etilgan, o‘tkazilayotgan Xizmat tekshiruvi, Xizmat tekshiruvi materiallariga aloqador bo‘lgan hujjat va materiallarga qo‘shib qo‘yishni talab qilish;</p> <p>Xizmat tekshiruvi tugaganligi to‘g‘risidagi xabarni olish va bunday xabar olingandan keyin 2 (ikki) kun ichida Xizmat tekshiruvi ma‘lumotnomasining unga tegishli qismi bilan u tasdiqlanishiga qadar tanishish (u foydalanish va o‘z mulohazalarini qo‘shib qo‘yish huquqiga ega</p>	<p>40. Ustidan Xizmat tekshiruvi ўтказилаётган ходим куйидаги ҳуқуқларга эга:</p> <p>Xizmat текшируви ўтказиш факти тўғрисида хабардор бўлиш;</p> <p>қоидабузарликнинг содир этилиши сабаблари ва шароитлари, Хизмат текширувининг бориши ҳақида ўз фикр-мулоҳазаларини ифодалаш ҳуқуқи билан ёзма ва оғзаки тушунтиришлар бериш, шунингдек, унинг тушунтиришларини тасдиқлаши мумкин бўлган исбот-далилларни тақдим этиш;</p> <p>Тушунтиришлар тақдим этишдан бош тurtиш – бу ҳолда ушбу Регламентнинг 33-бандида кўзда тutilган далолатнома тuzилади;</p> <p>ўзи томонидан тақдим этилган, ўтказилаётган Хизмат текшируви, Хизмат текшируви материалларига алоқадор бўлган хужжат ва материалларга қўшиб қўйишни талаб қилиш;</p> <p>Хизмат текшируви тугаганлиги тўғрисидаги хабарни олиш ва бундай хабар олингандан кейин 2 (икки) кун ичида Хизмат текшируви маълумотномасининг унга тегишли қисми</p>

<p>bo'lmagan konfidensial axborotdan tashqari);  Xizmat tekshiruvini natijalaridan, shu jumladan, ishchi guruh tomonidan tekshiruv yakunlari bo'yicha taklif etilgan javobgarlik chorasidan norozi bo'lgan taqdirda ushbu qaror ustidan Jamiyat rahbariga yoki yuqori turuvchi idoralarga shikoyat qilish.</p>	<p>билан у тасдиқланишига қадар танишиш (у фойдаланиш ва ўз мулоҳазаларини қўшиб қўйиш ҳуқуқига эга бўлмаган конфиденциал ахборотдан ташқари);  Хизмат текшируви натижаларидан, шу жумладан, ишчи гуруҳ томонидан текширув якунлари бўйича таклиф этилган жавобгарлик чорасидан норози бўлган тақдирда ушбу қарор устидан Жамият раҳбарига ёки юқори турувчи идораларга шикоят қилиш.</p>
<p><b>8-bob. Xizmat tekshiruvini o'tkazishga jalb qilinadigan boshqa xodimlarning huquq va majburiyatlari</b></p>	<p><b>8-боб. Хизмат текширувини ўтказишга жалб қилинадиган бошқа ходимларнинг ҳуқуқ ва мажбуриятлари</b></p>
<p>41. Xizmat tekshiruvini o'tkazishga jalb qilinadigan xodimlar Xizmat tekshiruvini o'tkazishda ishchi guruhga har tomonlama ko'mak berish, shu jumladan, Xizmat tekshiruvini bo'yicha talab qilingan tushuntirishlar, ma'lumot va hujjatlarni berishlari, ishchi guruh a'zolari tomonidan tashkil etiladigan suhbatda ishtirok etishlari shart.</p> <p>42. Xizmat tekshiruvini o'tkazishga jalb qilinayotgan xodimlar ularning tekshiruvda ishtirok etishlari sababli ularga ma'lum bo'lgan Xizmat tekshiruvini ma'lumotlarini oshkor qilishga xaqli emaslar.</p> <p>43. Xizmat tekshiruvini o'tkazishga jalb qilinayotgan xodimlar quyidagi huquqlarga ega:  O'zlari va yaqin qarindoshlarga qarshi guvohlik bermaslik;  Jamiyat rahbariga ishchi guruh rahbari va a'zolarining xarakatlari (xarakatsizligi) ustidan shikoyat qilish.</p>	<p>41. Хизмат текширувини ўтказишга жалб қилинадиган ходимлар Хизмат текширувини ўтказишда ишчи гуруҳга ҳар томонлама қўмак бериш, шу жумладан, Хизмат текшируви бўйича талаб қилинган тушунтиришлар, маълумот ва ҳужжатларни беришлари, ишчи гуруҳ аъзолари томонидан ташкил этиладиган суҳбатда иштирок этишлари шарт.</p> <p>42. Хизмат текширувини ўтказишга жалб қилинаётган ходимлар уларнинг текширувда иштирок этишлари сабабли уларга маълум бўлган Хизмат текшируви маълумотларини ошкор қилишга ҳақли эмаслар.</p> <p>43. Хизмат текширувини ўтказишга жалб қилинаётган ходимлар қуйидаги ҳуқуқларга эга:  Ўзлари ва яқин қариндошларга қарши гувоҳлик бермаслик;  Жамият раҳбарига ишчи гуруҳ раҳбари ва аъзоларининг ҳаракатлари (ҳаракатсизлиги) устидан шикоят қилиш.</p>
<p><b>9-bob. Xizmat tekshiruvini natijalarini rasmiylashtirish</b></p>	<p><b>9-боб. Хизмат текшируви натижаларини расмийлаштириш</b></p>
<p>44. Xizmat tekshiruvini natijalari bo'yicha ishchi guruh rahbari, uning barcha a'zolari, Xizmat tekshiruvini o'tkazilayotgan xodim tomonidan imzoladigan ma'lumotnoma tuziladi.</p> <p>45. Ma'lumotnoma mazkur Reglamentga 2- ilovaga muvofiq shaklda tuzilib, kirish, bayon, xulosa va taklif qismidan iborat bo'ladi.</p> <p>46. Ma'lumotnoma yoki uning alohida bandlaridan norozi bo'lgan, ishchi guruh a'zosi shuningdek ustidan Xizmat tekshiruvini</p>	<p>44. Хизмат текшируви натижалари бўйича ишчи гуруҳ раҳбари, унинг барча аъзолари, Хизмат текшируви ўтказилаётган ходим томонидан имзоланадиган маълумотнома тузилади.</p> <p>45. Маълумотнома мазкур Регламентга 2-иловага мувофиқ шаклда тузилиб, кириш, баён, хулоса ва таклиф қисмидан иборат бўлади.</p> <p>46. Маълумотнома ёки унинг алоҳида бандларидан норози бўлган, ишчи гуруҳ аъзоси</p>

<p>o'tkazilayotgan shaxs yozma ravishda rasmiylashtirilgan va ishga tirkalgan holda alohida fikrda ekanligini bildirgan belgi bilan ma'lumotnomaga imzo qo'yishi mumkin.</p> <p>47. Ustidan Xizmat tekshiruvi o'tkazilayotgan shaxs ma'lumotnomaga imzo qo'yishdan bosh tortgan hollarda dalolotnoma rasmiylashtiriladi. Ushbu dalolotnomaga ishchi guruh a'zolaridan tashqari, Xizmat tekshiruvi natijalaridan manfaatdor bo'lmagan kamida ikki nafar shaxs imzo qo'yishi lozim.</p> <p>48. Ma'lumotnomaga asosan Jamiyat rahbari quyidagi qarorlarni qabul qilishi mumkin:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>qoidabuzarlik to'g'risidagi ma'lumot tasdiqlamaganligi munosabati bilan Xizmat tekshiruvi to'xtatish;</li> <li>sabablari va muddatlari ko'rsatilgan holda Xizmat tekshiruvi materiallarini qo'shimcha ishlash uchun, zaruriyat tug'ilganda esa – ishchi guruh tarkibini o'zgartirish uchun qaytarish;</li> <li>aybdor xodimni intizomiy javobgarlikka tortish;</li> <li>xodimga nisbatan ogohlantirish, profilaktik harakterdagi choralarni qo'llash;</li> <li>kelgusida shu kabi qoidabuzarliklar sodir bo'lishining oldini olish bo'yicha tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;</li> <li>huquqbuzarlik yoki jinoyat alomatlari tasdiqlangan holda, tegishli materiallarni huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim etish.</li> </ul> <p>49. Xizmat tekshiruvi natijalari to'g'risidagi ma'lumotnoma kadrlar bilan ishlovchi tarkibiy bo'linmaga taqdim etiladi.</p> <p>50. Xizmat tekshiruvi o'tkazilishiga sabab bo'lgan ma'lumot haqida xabar bergan shaxslar qoidabuzarlik tasdiqlangani yoki tasdiqlanmagani, shuningdek ko'rilgan choralar haqida umumiy tarzda xabardor qilinadi.</p>	<p>шунингдек устидан Хизмат текшируви ўтказилаётган шахс ёзма равишда расмиylаштирилган ва ишга тиркалган ҳолда алоҳида фикрда эканлигини билдирган белги билан маълумотномага имзо қўйиши мумкин.</p> <p>47. Устидан Хизмат текшируви ўтказилаётган шахс маълумотномага имзо қўйишдан бош тортган ҳолларда далолотнома расмиylаштирилади. Ушбу далолотномага ишчи гуруҳ аъзоларидан ташқари, Хизмат текшируви натижаларидан манфаатдор бўлмаган камида икки нафар шахс имзо қўйиши лозим.</p> <p>48. Маълумотномага асосан Жамият раҳбари қуйидаги қарорларни қабул қилиши мумкин:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>қоидабузарлик тўғрисидаги маълумот тасдиқламаганлиги муносабати билан Хизмат текшируви тўхтатиш;</li> <li>сабаблари ва муддатлари кўрсатилган ҳолда Хизмат текшируви материалларини қўшимча ишлаш учун, зарурият туғилганда эса – ишчи гуруҳ таркибини ўзгартириш учун қайтариш;</li> <li>айбдор ходимни интизомий жавобгарликка тортиш;</li> <li>ходимга нисбатан огоҳлантириш, профилактик ҳарактердаги чораларни қўллаш;</li> <li>келгусида шу каби қоидабузарликлар содир бўлишининг олдини олиш бўйича тегишли чора-тадбирларни ишлаб чиқиш;</li> <li>ҳуқуқбузарлик ёки жиноят аломатлари тасдиқланган ҳолда, тегишли материалларни ҳуқуқни муҳофаза қилиш органларига тақдим этиш.</li> </ul> <p>49. Хизмат текшируви натижалари тўғрисидаги маълумотнома кадрлар билан ишловчи таркибий бўлинмага тақдим этилади.</p> <p>50. Хизмат текшируви ўтказилишига сабаб бўлган маълумот ҳақида хабар берган шахслар қоидабузарлик тасдиқлангани ёки тасдиқланмагани, шунингдек кўрилган чоралар ҳақида умумий тарзда хабардор қилинади.</p>
<p><b>10-bob. Xizmat tekshiruviga oid hujjatlarni saqlash va ulardan foydalanish</b></p>	<p><b>10-боб. Хизмат текширувига оид ҳужжатларни сақлаш ва улардан фойдаланиш</b></p>
<p>51. Xizmat tekshiruvida ishtirok etayotgan Jamiyat xodimlari tekshiruv davomida ularga</p>	<p>51. Хизмат текширувида иштирок этаётган Жамият ходимлари текширув давомида уларга</p>

<p>ma'lum bo'lgan axborotning konfidensialligini ta'minlaydilar (O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno).</p> <p>52. O'tkazilgan Xizmat tekshiruv doirasidagi ma'lumotlardan vakolatli foydalanish huquqiga faqat Jamiyat rahbari, Ichki nazorat tuzilmasi va ishchi guruhi a'zolari (mazkur ishchi guruh a'zosi ishtirok etgan tekshiruvlar bo'yicha) ega.</p> <p>53. O'z lavozim vazifalarini bajarish uchun o'tkazilgan Xizmat tekshiruvlari haqidagi axborotdan foydalanishi zarur bo'lgan xodimlar, ushbu axborotdan foydalanishi uchun Jamiyat rahbarining yozma roziligini olishi lozim.</p> <p>54. Xizmat tekshiruviga oid materiallar alohida yig'majildga raqamlangan va tikilgan holda Ichki nazorat tuzilmasida saqlanadi.</p> <p>55. Jamiyatning Ichki nazorat tuzilmasi mazkur Reglamentning 3-ilovaga muvofiq shaklda Xizmat tekshiruvlari elektron reestrini yuritilishini ta'minlaydi. Tarkibiy bo'linmalar tomonidan o'tkazilgan Xizmat tekshiruvlari elektron reestrini har chorakda Ichki nazorat tuzilmasiga taqdim etishlari shart.</p> <p>56. Xizmat tekshiruviga oid barcha hujjatlar, agar boshqacha tartib O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilmagan bo'lsa, tasdiqlangan vaqtdan boshlab 10 (o'n) yil davomida saqlanishi lozim.</p>	<p>ma'lum bo'lgan axborotning konfidensialligini ta'minlaydilar (O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan holatlar bundan mustasno).</p> <p>52. O'tkazilgan Xizmat tekshiruv doirasidagi ma'lumotlardan vakolatli foydalanish huquqiga faqat Jamiyat rahbari, Ichki nazorat tuzilmasi va ishchi guruhi a'zolari (mazkur ishchi guruh a'zosi ishtirok etgan tekshiruvlar bo'yicha) ega.</p> <p>53. O'z lavozim vazifalarini bajarish uchun o'tkazilgan Xizmat tekshiruvlari haqidagi axborotdan foydalanishi zarur bo'lgan xodimlar, ushbu axborotdan foydalanishi uchun Jamiyat rahbarining yozma roziligini olishi lozim.</p> <p>54. Xizmat tekshiruviga oid materiallar alohida yig'majildga raqamlangan va tikilgan holda Ichki nazorat tuzilmasida saqlanadi.</p> <p>55. Jamiyatning Ichki nazorat tuzilmasi mazkur Reglamentning 3-ilovaga muvofiq shaklda Xizmat tekshiruvlari elektron reestrini yuritilishini ta'minlaydi. Tarkibiy bo'linmalar tomonidan o'tkazilgan Xizmat tekshiruvlari elektron reestrini har chorakda Ichki nazorat tuzilmasiga taqdim etishlari shart.</p> <p>56. Xizmat tekshiruviga oid barcha hujjatlar, agar boshqacha tartib O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilmagan bo'lsa, tasdiqlangan vaqtdan boshlab 10 (o'n) yil davomida saqlanishi lozim.</p>
---	---

“Maxam-Chirchiq” AJ xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglamentga 1-ilova

## DALOLATNOMA

«\_\_» \_\_\_\_\_ 20\_\_ y.

Biz, quyida imzo qo‘yuvchilar

\_\_\_\_\_ (F.I.Sh., lavozimi)

\_\_\_\_\_ (F.I.Sh., lavozimi)

\_\_\_\_\_ (F.I.Sh., lavozimi)

Xodim (F.I.Sh., lavozimi) 20\_\_\_\_\_yilning «\_\_\_\_\_»da

\_\_\_\_\_ ,  
dan iborat bo‘lgan qoidabuzarlik sodir etilganligi to‘g‘risida yozma tushuntirish berish taklif etilgan bo‘lib, u yozma tushuntirish berishni rad etgani to‘g‘risida ushbu dalolatnomani tuzdik.

Yozma tushuntirish berishni rad etganligi sabablarini xodim (F.I.Sh., lavozimi) quyidagilar bilan izohladi

\_\_\_\_\_  
(tushuntirish berishni rad etganlik sabablari erkin shaklda bayon etilsin).

Dalolotnoma tuzgan shaxslar imzosi:

\_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (F.I.Sh.)

\_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (F.I.Sh.)

\_\_\_\_\_ (imzo) \_\_\_\_\_ (F.I.Sh.)

Dalolotnoma bilan tanishdim\*: (F.I.Sh., lavozim, sana, imzo) \_\_\_\_\_

\_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

\* Dalolotnomaga imzo qo‘yishdan bosh tortsa, ishchi guruh rahbari «imzolashdan bosh tortdi» yozuvini kiritib, o‘zi imzo qo‘yadi.

“Maxam-Chirchiq” AJ xodimlarining korrupsiyaviy xatti-xarakatlari  
va odob-ahloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat  
tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglamentga  
3-ilova

**Xizmat tekshiruvi natijalari to‘g‘risida ma‘lumotnoma**  
\_\_\_\_\_son

1. Asos: Jamiyat rahbarining buyrug‘i (sana va raqami)

2. Ishchi guruh tarkibi:

Ishchi guruh rahbari \_\_\_\_\_  
(lavozimi, familiyasi, initsiallari)

Ishchi guruh a‘zolari \_\_\_\_\_  
(lavozimi, familiyasi, initsiallari)

3. Xizmat tekshiruvini o‘tkazilgan muddati:

4. Tekshiruv o‘tkazish uchun asoslar (kelib tushgan xabarning qisqacha mazmuni): \_\_\_\_\_

5. Bayon qismi (xizmat tekshiruvda aniqlangan faktlar):

qoidabuzarlik sodir bo‘lganmi va u nimalarda ifodalangan;

qoidabuzarlik sodir etilgan joyi, vaqti, usuli va qoidabuzarlikni sodir etishning boshqa sharoitlari;

Xizmat tekshiruvi o‘tkazilayotgan xodim(lar)ning ma‘lumotlari (F.I.Sh., lavozimi, (tuzilmaviy bo‘linma nomi (boshqarma, bo‘lim nomini ko‘rsatgan holda), mehnat shartnomasi tuzilgan sana, ushbu xodimga nisbatan Xizmat tekshiruvi avval ham o‘tkazilganmi);

qoidabuzarlikni sodir etishga aloqador bo‘lgan shaxslar doirasi;

qoidabuzarlikni sodir etish maqsadlari va sabablari;

qoidabuzarlikni sodir etishga turtki bo‘lgan sabab va shartlar;

konkret xodimning aybdorligini tasdiqlovchi yoki uning aybsizligiga guvohlik beruvchi to‘plangan ma‘lumotlar tahlili;

Xizmat tekshiruvi o‘tkazilayotgan xodimning o‘z himoyasi uchun keltirgan dalillari, ularni tekshirish natijalari.

6. Xulosa va takliflar:

a) xulosa qismida:

Xizmat tekshiruvi o‘tkazilgan shaxs(lar)ning xarakter(lar)ida (xarakatsizligida) qoidabuzarlik mavjud yoki yo‘qligi to‘g‘risida xulosa;

qoidabuzarlik bo‘lsa, talablari buzilgan O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi yoki Jamiyatning ichki hujjatlari nomi, sanasi va buzilgan qoida mazmuni;

qoidabuzarlik sodir etish natijasida yetkazilgan zarar xarakteri va ko‘lami (mavjud bo‘lsa);

b) taklif qismida

aybdor shaxs (lar)ni javobgarlikka tortish bo‘yicha takliflar;

qoidabuzarlik sodir etishga olib keladigan sabab va shartlarni bartaraf qilishga qaratilgan tavsiyalar;

Xizmat tekshiruvi materiallarini huquqni muhofaza qilish organlariga taqdim etish zaruriyati.

Ishchi guruh a‘zolari imzolari:

Ma‘lumotnoma bilan tanishdim\*: \_\_\_\_\_  
(F.I.Sh., lavozimi) (imzo) (sana)

\* Ma‘lumotnomaga imzo qo‘yishdan bosh tortsa, ishchi guruh rahbari «imzolashdan bosh tortdi» yozuvini kiritib, o‘zi imzo qo‘yadi.



“Maxam-Chirchiq” AJ xodimlarining  
korrupsiyaviy xatti-xarakatlari va odob-ahloq  
qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat  
tekshiruvlari o‘tkazish bo‘yicha Reglamentga 3-  
ilova

**Xizmat tekshiruvlari elektron reestri**

T/r	Xizmat tekshiruvi o‘tkazish to‘g‘risidagi buyruq raqami va sanasi	O‘tkazilgan Xizmat tekshiruvi natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotnoma raqami va sanasi	Xizmat tekshiruvi o‘tkazish davri	Ishchi guruh tarkibi	Qoidabuzarlik to‘g‘risidagi axborot kelib tushgan manba	Xizmat tekshiruvi o‘tkazish yo‘nalishlarining qisqacha ta‘rifi	Tekshiruv natijalarining qisqacha ta‘rifi	Aniqlangan aybdor shaxslar ro‘yxati	Tekshiruv natijalari bo‘yicha tasdiqlangan choralar	Muddatlar va ijro uchun ma‘sul	Amalda bajarilganlik to‘g‘risidagi axborot
1	2	3	5	6	7	8	9	10	11	12	13
1											
2											
3											
4											
5											
...											